

IJTIMOIIY ADOLAT VA FUQAROLIK MAS'ULIYATINI OSHIRISHDA KONSTITUTSIYANING TA'LIMDAGI ROLI

Muhtullaeva Naubaxar

Nukus davlat pedagogika instituti Magistrant

Annotatsiya: Ushbu maqolada, ijtimoiy adolat va fuqarolik mas'uliyatini oshirishda Konstitutsiyaning ta'limdagi o'рни o'rganiladi. Konstitutsiya, yoshlarni huquqiy bilimlar va demokratik qadriyatlar bilan tanishtirib, ularni fuqarolik mas'uliyatiga tayyorlashda muhim vosita sifatida ko'rib chiqiladi. Maqola, Konstitutsiyani o'rgatish orqali ijtimoiy adolatni rivojlantirish, fuqarolik burchlarini anglash, inson huquqlariga hurmat ko'rsatish va jamiyatda adolatni ta'minlashning samarali metodlarini tahlil qiladi. Shuningdek, Konstitutsiyaning ta'limdagi roli, fuqarolarni nafaqat huquqlarini, balki burchlarini ham o'rganishga, jamiyatdagi ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda faol ishtirok etishga yordam beradi.

Kalit so'zlar: Konstitutsiya, ta'lim, ijtimoiy adolat, fuqarolik mas'uliyati, huquqiy ta'lim, demokratik qadriyatlar, fuqarolik burchlari, inson huquqlari, ijtimoiy barqarorlik, jamiyat.

KIRISH

Ijtimoiy adolat va fuqarolik mas'uliyati har bir demokratik jamiyatda barqarorlik va rivojlanishning poydevoridir. Ushbu qadriyatlar fuqarolarni faqat huquqlari bilan emas, balki ularning jamiyatdagi burchlari va mas'uliyatlari bilan ham tanishtiradi. Ta'lim jarayonida Konstitutsiyaning o'rganilishi, aynan shu maqsadlarni amalga oshirishda muhim vosita hisoblanadi. Konstitutsiya, davlatning asosiy huquqiy hujjati sifatida, fuqarolarga o'z huquqlarini tushunish, ularni himoya qilish va davlat oldidagi mas'uliyatlarini anglashda muhim rol o'ynaydi. Bu esa yoshlarni nafaqat huquqiy bilimlar, balki axloqiy va ijtimoiy qadriyatlar bilan ham tarbiyalaydi.

Ijtimoiy adolat, barcha fuqarolarning teng huquqlilik, erkinlik va imkoniyatlardan foydalanishini ta'minlashni anglatadi. Konstitutsiya, o'z navbatida, ushbu prinsipni jamiyatda mustahkamlashga qaratilgan bir qator me'yorlarni o'z ichiga oladi. Masalan, O'zbekiston Konstitutsiyasining 1-moddasida davlatning asosiy vazifalari va maqsadlari belgilangan bo'lib, ularda adolat, tenglik, va erkinlikni ta'minlashga alohida e'tibor qaratiladi. Ta'lim jarayonida Konstitutsiyaning o'rgatish, yoshlarni ijtimoiy adolatning asosiy tamoyillari bilan tanishtirishga xizmat qiladi. O'quvchilar, o'z huquqlarini va erkinliklarini bilib, ularni jamiyatda qanday amalga oshirishlarini, adolatni ta'minlashda qanday faoliyat yuritishlarini tushunadilar.



Konstitutsiyani o'rganish, shuningdek, o'quvchilarga jamiyatda mavjud bo'lgan ijtimoiy tengsizlik va adolatsizlikka qarshi kurashish yo'llarini ko'rsatadi. O'quvchilar, bu jarayonda fuqarolik mas'uliyatini qabul qilishni o'rganadilar va jamiyatdagi huquqiy va ijtimoiy barqarorlikka o'z hissalarini qo'shishadi. Konstitutsiya, shuningdek, inson huquqlarini himoya qilish va ularga hurmat ko'rsatish borasidagi me'yorlarni belgilash orqali ijtimoiy adolatni mustahkamlashda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

O'zbekiston taraqqiyotining bugungi bosqichida mamlakatda islohotlar kolami to'g'risida to'xtalib davlatimiz rahbari shunday deydi: "Jamiyatni siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy modernizatsiya qilish bo'yicha keng ko'lamlı chora-tadbirlarimiz natijasida yangi O'zbekiston shakllanmoqda. Bugungi kunda mamlakatimizdagi demokratik o'zgarishlar ortga qaytmaydigan tus oldi".

Qaysi mamlakatki, uning xalqi hukumat siyosatini to'laqonli tushunib yagona maqsad bilan uni qollab-quvvatlamasa, bu islohotdan kozlangan vazifalar natijasi barchaga ayon. Shu bois ayni damda yurtimizda barcha sohada kadrlar tayorlash tizimini qayta ko'rib chiqilmoqda. Xususan, huquqiy ta'lim tizimida ham. Yuksak huquqiy madaniyat demokratik jamiyat poydevori hamda huquqiy tizim etukligining ifodasidir. U jamiyatdagi turli xil hayotiy jarayonlarga faol ta'sir ko'rsatuvchi, fuqarolarning, barcha ijtimoiy guruhlarning jipslashuviga ko'maklashuvchi, jamiyatning yaxlitligi hamda batartibligini ta'minlovchi va mustahkamlovchi omildir. Qonunni hurmat qilish huquqiy jamiyatning, siyosiy va huquqiy tizimlar samarali faoliyat ko'rsatishining asosiy talablaridan biri hisoblanadi.

Orta, o'rta maxsus, professional, oliy ta'lim tizimimizda bugungi kun huquqiy fanlarining oqitilish jarayoni qanday? Bu holat barchani o'yga toldirishi tabiiy. Negaki ixtisoslashgan ta'lim muassasalari bo'lmish Toshkent davlat yuridik universiteti, huquqshunoslik kollejlari, yuridik litseyini aytmasa, qolgan ta'lim muassasalarida huquq fanlari "2-darjali fan" sifatida qarab qolingan.

Bu esa ko'plab soha vakillarida oz burchini unutib qo'yishlikka, bora-bora huquqiy nigilistik kayfiyat shakllanishiga olib kelmoqda. Axborot bilan ta'minlanish imkoniyati ortib borishi, qulayliklarning ortishi jarayoni bilan bugungi yosh avlodning huquqiy madaniyat ko'rsatkichlari teskari proporsional holda o'sib bormoqda.

Olib borilayogan islohotlarga ko'plab aholi qatlamlari keng qismi befarqlik bilan qarashi ham avvalo ana shu omil - huquq fanlaridan yetarli darajada saboq olmayotganligining oqibati deya olamiz.

1997-yilda "Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturi" qabul qilindi,



2001-yil 4-yanvarda "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganishni tashkil etish to'g'risida"gi Prezident farmoyishi e'lon qilindi, 2019-yil 9-yanvardagi "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi Prezident Farmoni, 2019-yil 20 -apreldagi "Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish bo'yicha tadbirlarni monitoring qilish va baholash to'g'risida"gi Nizomning qabul qilinishi, bularning barchasi aynan huquqiy savodxonlikni yuksaltirish, provardida mamlakatdagi keng kolamli islohotlarga barchani oz huquq va burchlari doirasida faol ishtirokini ta'minlash maqsadining huquqiy asosi hisoblanadi. 2001-yilgi Prezident farmoni asosida barcha ta'lim muassasalarida Konstitutsiyani o'rganish kurslari joriy qilindi.

Yuqorida nomi keltirilgan Nizomda shunday deyilgan: "Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish bo'yicha tadbirlarni monitoring qilish va baholashning asosiy maqsadi aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga doir huquqiy targ'ibot tadbirlarining samaradorligini oshirish, bu borada davlat organlari va tashkilotlarning mas'uliyatini kuchaytirish hamda huquqiy targ'ibot tadbirlarini tashkil qilish bo'yicha yangi innovatsion uslublarni joriy qilish bo'yicha takliflar ishlab chiqish va amalda tatbiq etishdan iborat".

TADQIQPT NATIJALARI

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarning muhim natijalaridan biri ijtimoiy himoya siyosatining demokratik jamiyatni barpo etishdagi o'rnini va ahamiyatining ortib borishi bilan belgilanmoqda. "Bugungi kunda ijtimoiy hayot sohasidagi salbiy holatlarni bartaraf etib, odamlar turmush darajasining keskin pasayib ketishiga yo'l qo'ymasdan, aholining himoyaga muhtoj qatlam va guruhlarini ijtimoiy muhofazasini ta'minlagan holda, O'zbekistonda ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni va fuqarolar totuvligini saqlab qolishga muvaffaq bo'ldik.

"Darhaqiqat, bozor munosabatlariga o'tish davrida mamlakatimizda kuchli ijtimoiy himoya tizimi shakllantirildi va hozirda uni takomillashtirish muhim masala bo'lib qolmoqda. Bugungi kunda ijtimoiy siyosatni amalga oshirishda sifat jihatdan yangi bosqichga o'tish ehtiyoji paydo bo'ldi. Shu munosabat bilan aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning zamonaviy tizimi shakllantirilmoqda.

Adolat tushunchasining kelib chiqishi (sotsiogenezi) to'g'risidagi ta'limotni buyuk ajdodimiz Abu Nasr Forobiy ham yaratishga uringan. Buyuk mutafakkir adolat g'oyasini jamiyatning asosiy davrlariga tadbiquan qarab chiqqan. Bunda u insoniyat jamiyatining kelib chiqishida tabiiy ehtiyojlar yotishini, bu ehtiyojlarni uyg'unlashtirish esa adolat tuyg'usini shakllantirishini ta'kidlagan edi.



SHarq mutafakkiri Konfutsiyning g'oyalarini davom etirgan holda Forobiy «adolat» tushunchasi insoniyatning ma'rifiy davriga to'g'ri kelganligini ta'kidlaydi. Bu davrda hususiy mulk o'rnatiladi va u kishilarning o'zaro tengsizligini keltirib chiqaradi. SHunisi muhimki, teng taqsimlashni ifodalagan adolat tushunchasi endi mulk ta'sirida tengsizlikni ifoda eta boshlaydi. Bu tushunchaning o'zi hususiy mulkni o'rnatishda ishtirok etadi.

Demak, adolat to'g'risidagi tasavvurlar insoniyatning oddiy egalitarizm, ya'ni barcha baravar bo'lgan holdagi darajasidan yuqori ko'tarila borishi natijasida yanada to'laroq shakllana borgan. Tenglashtiruvchi qoida bo'lgan, zo'rlikni aks zo'rlik bilan muvofiqlashtiruvchi vosita sifatida da'volar tengligini o'rnatib kelgan «adolat» tushunchasi hususiy mulkka asoslangan jamiyatda yangicha mazmun kasb eta boshlagan. Endi jamiyat ijtimoiy munosabatlarni muvozanatga keltirishning yangi tizimiga muhtojlik seza boshladi.

YUz bergan ulkan ijtimoiy o'zgarishlar kishilar ongida, dunyoqarashida, siyosiy-huquqiy fikrda, axloqiy normalarda ijtimoiy adolat g'oyasining uzil-kesil shakllanishiga olib kelgan. Bu haqda Sharqning boshqa bir mutafakkiri – Abu Ali ibn Sino qiziqarli fikrlarni bayon qilgan. Uning fikricha, o'zaro bog'liqlik va almashuv jarayonida insonlar bir-birlarini qandaydir muhtojlikdan holi etadilar. Buning uchun insonlar o'rtasida o'zaro kelishuv zarur bo'lib, bu kelishuv tufayli adolat qoidalari va qonunlari o'rnatiladi.

Ijtimoiy hayotda adolatparvarlikni qat'iy turib himoya qilgan ta'limotlardan biri tasavvuf falsafasidir. Tasavvuf namoyondalari boshqa sharq mutafakkirlari singari o'z umidlarini ma'rifatli va odil shohga bog'laydilar, u orqali barcha ijtimoiy illatlarni bartaraf etish mumkin, deb hisoblaydilar.

Tasavvuf namoyondalari hokim va xalq, shoh va saltanat munosabatlarida donolik bilan adolatli ish tutish, davlatni adolatli qonunlar orqali boshqarish, qabul qilinayotgan tadbirlarning xalq tomonidan qo'llanishi kabi ijtimoiy muammolarni ko'taradilarki, bu xalqparvar tuzum ideallarini ulug'lashtirdi.

Tasavvufning ko'pgina namoyondalari shohlar, hokimlar, amaldorlardan adolatni kutib o'tirmay, o'z amaliy faoliyatlarida unga amal qilish bilan o'rnak bo'lganlar. Hasan Basriy, Abdulla Ansoriy, Abdulhasan Haraqoniy, Bahouddin Naqshband, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Ho'ja Ahror Valiy, Mahdumi A'zam Kosoniy ko'pincha shoh va hokimlar adolatsizliklariga qarshi chiqib, mazlumlarni dadil himoya qilganlar, haqiqat uchun kurashganlar.

SHarq mutafakkirlari adolatni asoslashda lirik-ruhiy, ma'naviy-axloqiy jihatdan yondashganlar. Zero, sharqona jamiyatlarda azaldan adolat tushunchasiga hamohang



tarzda «haq», «me'yor», «haqiqat», «burch» tushunchalari qadrlanib kelingan. SHuningdek, jamoa manfaati, oiladagi tartib-intizom, e'tiqod va ma'naviylik yuqori baholangan.

G'arb mutafakkirlari esa ko'proq huquqiy, amaliy, kundalik hayot muammolari nuqtai nazaridan fikr yuritganlar. SHuning uchun ham SHarqdagidan ancha farqli tarzda «erkinlik», «teng huquqlilik», «erk» tushunchalariga ko'proq darajada ahamiyat berilgan. SHu bilan birga individualizm, individning tartib-intizomi, huquq adolatga olib boruvchi vositalar sifatida qadrlanadi, ma'naviylikdan ham ko'ra ratsionalizm mustahkam o'ringa ega bo'lgan.

Birinchi prezidentimiz I.A. Karimov ta'kidlaganidek, biz shunchaki demokratik davlat emas, balki adolatli demokratik davlat qurishga intilyapmiz. Adolatga intilish - xalqimiz ma'naviy - ruhiy dunyosiga xos eng muhim hususiyat. Adolatparvarlik g'oyasi butun iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlar tizimiga singib ketishi, ijtimoiy ko'maklashuv mexanizmida o'z aksini topishi kerak.

Darhaqiqat, O'zbekistonda huquqiy demokratik davlat va bozor iqtisodiyotiga asoslangan fuqarolik jamiyatini barpo etishda adolat omili muhim o'rin tutadi. SHu ma'noda adolat tushunchasi, uning erkinlik, demokratiya va barqaror taraqqiyot g'oyalari bilan mushtarak jihatlari bugungi kunda ham zamonaviy mazmun kasb etmoqda.

Lekin tarixan oladigan bo'lsak, ijtimoiy adolat g'oyasi insoniyatning butun tarixi orqali o'tib kelgan. SHu bilan birga jamiyatni adolatli tashkil etish orzusi va uning hayotdagi haqqoniy mavjudligi o'rtasida doimo ziddiyat bo'lib kelgan. SHunga qaramay uni «naqd qilib qo'yishga» urinish to'xtamagan. SHu nuqtai nazardan insoniyat sivilizatsiyasining butun tarixi ijtimoiy adolatni kengaytirish tarixi hamdir. Albatta, SHarq va g'arb jamiyatlaridagi bu kabi qadriyatlar bir-biriga zid emas, ular o'zaro uyg'unlikda umuminsoniy qadriyat darajasida jamiyat hayotida ijtimoiy adolat qoidalarining barqaror bo'lishiga hizmat qiladi.

SHarq va g'arb an'alarida asrlar davomida shakllanib kelgan bu kabi tushunchalar hamda qadriyatlar mustaqillik davrida jamiyatimizda umuminsoniy g'oyalar sifatida qayta shakllanishi shu jihatdan katta ahamiyatga ega.

Zero, bu jamiyatimizda insonparvarlik, birdamlik, inson erki va mas'uliyatini manfaatlar uyg'unligi, qonun ruhi va demokratiya qadriyatlari asosida amalga oshirishga va shu tariqa ijtimoiy adolatni mustahkamlashga hizmat qiladi.

Umuman, mustaqillik davrida odamlarimiz ongida ijtimoiy adolatning yangicha tushunchasining shakllanishi mamlakatimiz kelajagi va islohotlar muvaffaqiyati garoviga aylanmoqda.

Adolatli jamiyat qurish haqidagi umuminsoniy orzular va qarashlarni yangi jamiyat



barpo etish manfaatlariga bo'ysundirish muhim amaliy masala bo'lib turibdi. Biz barpo etayotgan jamiyat insonparvar bo'lmog'i zarur.

Bunda demokratik modellarni ko'r-ko'rona ko'chirib olmasdan, balki ilg'or demokratik jamiyatlar tajribasini tanqidiy o'rganish asosida fuqarolik jamiyatini qurish ehtiyojlariga hizmat qildirish talab etiladi.

Aholining yordamga eng muhtoj qatlami - bolalar, yolg'iz qariyalar, nogironlarga ijtimoiy yordam ko'rsatish va ularni qo'llab-quvvatlash ishlarini aniq mo'ljalli tarzda amalga oshirish zarur. Shu bois, islohotlarning hozirgi bosqichida ijtimoiy yordam tizimini takomillashtirish, aholini ijtimoiy himoyalashning ta'sirchan mexanizmini shakllantirish davom ettirilmoqda.

Muayyan moddiy yordam aniq oilalarga etib borishi, jamiyatning ijtimoiy zaif qatlamlariga mo'ljallangan tabaqalashtirilgan yordam bo'lishi va haqiqatan ham bunday yordamsiz kun kechirolmaydiganlarga borib tegishi lozimligini hayotning o'zi ko'rsatmoqda.

Hozirgi paytda aholining ijtimoiy zaif qatlamlariga davlat tomonidan shunchaki moddiy yordam ko'rsatishgina emas, balki jamiyat a'zolarining aksariyat qismini ehtiyoj va manfaatlarini qondirish va ro'yobga chiqarishda avvalo, ularning o'z tashabbusi, intilishi va mas'uliyatini kuchaytirish asosidagi ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish vaqti etdi.

Aynan shu ma'noda ijtimoiy sohada amal qilib kelayotgan ustuvor tamoyillar, hususan, qonun ustuvorligi, islohotlarni bosqichma-bosqich joriy etish, kuchli ijtimoiy siyosat kabi tamoyillar ijtimoiy himoya tizimini rivojlantirishda muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Har qanday demokratik jamiyat ma'lum ma'noda ijtimoiy asoslarni birlamchi manba sifatida qabul qiladi. Ijtimoiy asoslari bo'lmagan jamiyat o'z taraqqiyotida sobit bo'la olmaydi. SHu ma'noda demokratik jamiyat taraqqiyoti uchun kuchli ijtimoiy himoya va adolat tamoyillari muhimdir.

Umumiy ma'noda ijtimoiy himoya demokratik huquqiy davlat tomonidan fuqarolar, turli jamoalarning huquqlarini ta'minlash bilan cheklanib qolmay, ulardan amalda foydalanishni kafolatlash, amalga oshirish uchun barcha shart-sharoitlarni yaratib berishni anglatadi. YA'ni, insonlar davlat uchun emas, davlat xalq uchun hizmat qiladi, bu inson va uning qadr-qimmatiga hurmat deb baholanadi.

Ijtimoiy himoya», «ijtimoiyadolat» tushunchalarining shakllanib borishi insoniyatning demokratik tafakkuri bilan bog'liqdir.

Hususan, Abu Nasr Forobiyning «Fozil odamlar shahri» asarida ifodalangan fozil



jamiyat g'oyasi bugungi kundagi demokratik jamiyat konsepsiyasiga hamohangdir.

Forobiyning fozil jamiyat konsepsiyasiga ko'ra, baht-saodatga intiluvchi jamiyatda qonun ustuvor bo'lib, butun ijtimoiy hayot ana shu ustuvor tamoyil asosida tuziladi. SHu ma'noda fozil jamiyatda avvalo erkinlik mavjud bo'ladi.

Unda adolat, erkinlik va tenglik tushunchalari kun tartibida bo'lib, bu me'yorlar fozil jamiyatning asosi bo'ladi. SHu bilan birga, Forobiy fikricha, jamiyat davlat bilan kuchlidir.

U etuklashgan sayin o'z a'zolarini himoyaga ola boradi. SHuni ham alohida aytish kerakki, agar o'tmish mutafakkirlari ijtimoiy kafolatlanish uchun inson faolligi masalasini ilgari surgan bo'lsalar, Forobiy qarashlarida insonni ijtimoiy kafolatlashda jamiyatning roli alohida uqtirila boshlandi. Demak, jamiyat ham himoya vositasi bo'lishga mas'ul, degan g'oya ilgari surilgan.

O'zbekistonda kuchli ijtimoiy himoya muammolari siyosat darajasiga ko'tarildi. Buning uchun esa dastavval qonunlar tizimi yaratildi, keskin tabaqalanishdan holi bo'lgan mulkdorlar sinfi shakllantirila boshlandi, shu asosda iqtisodiy taraqqiyot inson manfaatlariga yo'naltirilayapti.

Bir so'z bilan aytganda, «davlatning ijtimoiy tizimi bilan xalq ehtiyojlari o'rtasidagi jarlik» bartaraf etildi. SHu bilan birga bugungi kunda mamlakatimizda insonning jamiyatdagi o'rnini anglashi, o'zini-o'zi tarbiyalay olishi va o'zini-o'zi taraqqiy ettira olishiga mas'uliyatining kuchayib borishi ijtimoiy himoya tizimini amaliy jihatdan mustahkamlashga ko'maklashishi zarur.

Demokratik jamiyatning mohiyati shundaki, adolat va haqiqatg'oyasi ijtimoiy hayotning barcha sohalarini qamrab oladi. Jamiyatda mulkiy jarayonlarning ob'ektiv o'zgarishi yuz berayotgan bir paytda jamiyatning keskin tabaqalanishiga, ya'ni oshib-toshib ketgan boylaru kambag'al-qashshoqlarga bo'linib ketishiga yo'l qo'yilmaydi. SHu ma'noda ijtimoiy himoya muhofazaga muhtojlarni davlat himoyasiga olishdir. SHu bilan birga, ijtimoiy himoya insonning jamiyatdagi munosib o'rnini belgilovchi va faolligining yuksalishini ta'minlovchi asosiy ko'rsatkichdan biriga aylanadi.

XXI asr boshlarida demokratik tamoyillarning ustuvor kelishi ko'zga tashlanadi. Ijtimoiy himoya tizimi ham hozirgi zamon davlatchiligining o'ziga xos demokratlashuvidagi asosiy omillardan biri bo'lib hizmat qilmoqda.

Jamiyatning kam ta'minlangan tabaqalarini ijtimoiy himoya qilish tamoyili hozirgi zamon taraqqiyot konsepsiyasida yangicha yo'nalishdir. Ma'lumki, hatto barqaror demokratik taraqqiyotga erishgan bugungi Yevropa mamlakatlari ham o'z vaqtida bunday amaliyotni chetlab o'tgan edilar.

O'zbekistonda esa ushbu tamoyilni amalga oshirish uchun hukumat dasturlari ishlab



chiqildi va amalga oshirildi. Bu islohotlarni yanada kengaytirish uchun zarur edi. hozirda, aytish mumkinki, o'zbekiston ijtimoiy siyosatida ana shu aniq natijaga erishildi.

Bu real yo'nalishga ega bo'lgan amaliy bosqichdir. Ijtimoiy islohotlar konsepsiyasi jamiyatda barqarorlik va xavfsizlik tizimining mustahkamlanishiga qaratildi. Natijada o'zbekiston ijtimoiy siyosatida barqaror o'zgarishlarga erishildi. Jahon ekspertlarining xulosalariga ko'ra, aynan ushbu konsepsiya O'zbekistonning ijtimoiy taraqqiyot bosqichiga kirishiga asos bo'ldi. Hususan, yaqinda BMTning YUNISEF tashkiloti tomonidan turli davlatlarning ijtimoiy rivojlanishi bo'yicha e'lon qilgan qiyosiy tadqiqot natijalari ham fikrimizni tasdiqlaydi.

O'zbekistonda yuritilayotgan ijtimoiy siyosatdagi o'zgarish jamiyat tabaqalarining manfaatlarini himoya qilishda amaliy ahamiyat kasb etishi zarur. Aynan ushbu ijtimoiy talab bajarilsagina, O'zbekistonda amalga oshirilayotgan kuchli ijtimoiy siyosatning asoslaridan biri - ijtimoiy totuvlik saqlanadi.

Ijtimoiy totuvlik ustuvor bo'lgan jamiyatdagina kuchli ijtimoiy siyosat yuritish uchun imkoniyat yaratiladi. Ammo ijtimoiy totuvlik o'z-o'zidan kelib chiqmaydi. Zero, har qanday jamiyatda turli ijtimoiy tafovutlarning bo'lishi tabiiy holdir. Mutaxassislar fikricha, bu ijtimoiy tafovutlar quyidagi guruhlar o'rtasida ma'lum ma'noda ijtimoiy farqlarning mavjudligida o'z ifodasini topadi:

- boylar va kambag'allar orasida;
- ko'p millatli davlatlarda aholining etnik guruhlari orasida;
- aholining diniy guruhlari orasida;
- markaz va mintaqalar orasida;
- erkaklar va ayollar orasida;
- turli avlodlarga mansub odamlar orasida.


Bu tafovutlar O'zbekiston jamiyatida ham ko'zga tashlanadi. SHu sababli imkon qadar aytib o'tilgan tafovutlar ko'rinishini kamaytirish borasida chora-tadbirlar amalga oshirilib borilishi ijtimoiy siyosatning maqsadlaridan biridir.

Xulosa

Ta'lim jarayonida Konstitutsiyaning o'rganilishi ijtimoiy adolat va fuqarolik mas'uliyatini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Konstitutsiya, yoshlarni huquqiy ong va demokratik qadriyatlar bilan tanishtirib, ularni fuqarolik burchlarini anglash va jamiyatda adolatni ta'minlashda faol ishtirok etishga tayyorlaydi. Maqolada ta'kidlanganidek, Konstitutsiyaning ta'limdagi roli nafaqat huquqlarga bo'lgan hurmatni rivojlantirish, balki ijtimoiy tenglik, adolat va erkinlikni ta'minlashga qaratilgan.

Yoshlar, ta'lim tizimida Konstitutsiyani o'rganish orqali, jamiyatda mavjud bo'lgan





ijtimoiy va siyosiy mas'uliyatlarni anglashadi va adolatli fuqarolar sifatida jamiyatda o'z o'rnini topadilar.

Shu tariqa, Konstitutsiyaning ta'lim jarayonidagi o'rni ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda muhim omil bo'lib, yoshlarni mas'uliyatli, faol va huquqiy ongga ega fuqarolar sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Doniyev S.I., Ibrakhimov F.A., Joldasov I.S. Trends in the development of primary education (an example of the finnish system of primary education). Innovations in pedagogy psychology. Special issue -2. Toshkent-2020. 392-page.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 75-sessiyasidagi nutqi 23.09.2020

3. Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish bo'yicha tadbirlarni monitoring qilish va baholash to'g'risida Nizom. 2019-yil 20-aprel. (<https://lex.uz/ru/docs/-4300837>)

4. Ахназарова, Д. Э. (2023). ПЕДАГОГИЧЕСКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ТВОРЧЕСКИХ СПОСОБНОСТЕЙ СТУДЕНТОВ. Universum: психология и образование, (9 (111)), 23-24.

5. Ахназарова, Д. Э. (2023). TALABALARDA IJODKORLIK QOBILIYAT XUSUSIYATLARINI NAMOYON BO'LISHINING O'ZIGA XOS PSIXOLOGIK JIHATLARI: Axnazarova Diyora Erkin qizi Guliston Davlat Universiteti stajor-tadqiqotchisi. Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал, (8), 96-99.

6. Akhnazarova, D. (2023). THEORETICAL ANALYSIS OF THE PROBLEM OF CREATIVITY IN PSYCHOLOGY. Science and innovation, 2(B5), 343-346.

